



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



IKKITILLI TA'LIM

Habibova Fayyoza Jamshid qizi

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti filologiya va
tillarni o'qitish 1-ingliz tili fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimizda, xorijiy tillarni o'rganayotgan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, chet tillarini o'rgatuvchi insonlar ham. Chet tillarini o'rganish har bir shaxsning kariyerasi uchun muhim hisoblanadi va kelajakda o'z sohaning yuqori darajali kadri ekanligini ko'rsatib beradi. Mazkur maqola maktablarda ikkitilli ta'limning foydalari va ikkitilli ta'lim dasturi modeli haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: ikkitillilik, bimodal, kompetensiya, immersion, dastur, lingvistik, kirish, metod, muhokama, nazariya, natija, xulosa.

BILINGUAL EDUCATION

Annotation: *In today's developing society, a large number of people are engaged in learning foreign languages, as well as teaching them. In particular, learning a foreign language plays an important role in every individual's career and shows how valuable this skill is for the future, especially in becoming a highly qualified specialist in one's field. This article provides information about how bilingual education should be organized in schools and describes the modul of a bilingual education program.*

Keywords: *bilingualism, bimodal, competency, immersion, program, linguistics, introduction, method, discussion, theory, result, conclusion.*

Xorijiy tillarni o'rganish biroz mashaaqqatli jarayon hisoblanib, yetarlicha malaka va sabr talab qiladi. Xo'sh, ayni shu jarayon murakkab tuyulishiga qaramasdan, odamlar nega ularga ko'p e'tibor qaratib o'rganishyapti? Ayrim maktablarda ikkitilli ta'lim maktablariga yetarlicha qiziqish bildirilyapti. Odamlarni birtilli ta'limdan ikkitilli ta'limga o'tishga nima undaydi? Bu holatga shaxsiy manfaaat va o'sib-o'rganishga bo'lgan ishtiyoq turtki bo'lishi mumkin. Ikkitillilik(yoki zullisolayn)- bu jamiyatda ijtimoiy ehtiyoj, shaxsiy qiziqish yoki bir hududda yashovchi turli xalqlarning bir-birini tushunishiga xizmat ko'rsatuvchi vosita sifatida vujudga kelgan. Ikkitillilik 2 xil yo'l bilan vujudga keladi: tabiiy ravishda va ijtimoiy sababga ko'ra.

Tabiiy ravishda- turli davlatlarda yashash natijasida ikkinchi tilga ehtiyoj tug'iladi yoki turli xalqlar yashaydigan hududlarda insonlar muloqot vazifasi sifatida ikkinchi tilni o'rganadilar. Ijtimoiy sabab- ikkinchi tilni o'rganishga kasbi yuzasidan talab yoki ehtiyoj bo'lsa. Har ikki holat ham tillar rivojiga hissa qo'shadi. Bilingvizm lotincha, "bi"- ikki, "lingua"- til, ya'ni ikkitillilik ma'nosini bildiradi. Ikkitilli ta'limda o'quvchilar ikki yoki



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



undan ortiq tillarda o'qitiladi. Bu ikkinchi tilni fan sifatida o'qitishdan butkul farq qiladi. Chunki ikki tilda ham maktab fanlari (tarix, matematika, biologiya) kabilar o'qitiladi. Ikkala tilni ham oson o'rganish, til o'rganish jarayonida qaysi usullardan foydalanilayotganiga bog'liq. Ikkitilli ta'limning ustun jihati shundaki, ba'zilar bir tilda ta'lim olib tugatayotganda, ikkitilli o'quvchilar ikkala tilda ham so'zlashish, yozish, tarjimonlik qobiliyatiga va strategiyalar orqali savodxonlikka erishadilar. Ikkitilli maktablar bimodal dastur(ham gapirish, yozish ham imo-ishora tili)orqali 2 xil usulda ta'lim berish bilan kar va uncha yaxshi eshitmaydiganlarni ham ta'limga jalb qilishlari mumkin.

Ikki tilli maktablarda ikkala tilda ham dars berish uchun eng ko'p tarqalgan usullardan biri bu- 90\10 metodi hisoblanib, o'quvchilar dastlab o'z tillarida ma'lumotlarning 90% iga ega bo'lib borishadi. Qolgan 10% ma'lumotlar esa ikkinchi tilda o'qitiladi. Bu holat ikkinchi tilda o'z ona tilisidagi kabi vaqt sarflamagunga qadar o'quvchining yoshi va sinfiga qarab o'zgarib boradi. Ayrim usullar yuqoridagiga zid tarzda o'z ona tili va ikkinchi tilda darslar bir xilda 50\50 usulida olib borilishini talab qiladi. Yangi tilni o'rganish jarayonida esa o'z ona tilini saqlab qolishga e'tibor berish, savod chiqarish va akademik bilim egallashda ona tildan foydalanish lingvistik maqsad sanaladi va til tanazzulga uchrashining oldini oladi.

Tilni samaraviy o'rganishda qo'l keladigan talaygina yondashuvlar bor. Misol uchun, immersion- til o'rganish usuli, bunda talaba va o'quvchilar o'zlari o'rganayotgan tilning muhitiga joylashtiriladi, boshqa tildan foydalanilmaydi. Bu yondashuv tilni sun'iy emas, tabiiy tarzda o'rgatishga hissa qo'shadi. Immersion yondashubda til tabiiy o'rganiladi- atrofdagi odamlar, o'qituvchilar, kitoblar va butun muhit shu tilda yaratiladi. Immersion dastur turlari:

1. To'liq immersion (full immersion) - ta'lim jarayoni (barcha fanlar, muloqot) hammasi shu tilda olib boriladi.

Masalan: Kanadada ingliz tilida gapiradigan bolalarga fransuz tili tabiiy muhitni yaratish orqali o'rgatiladi.

2. Qisman immersion (partial immersion) – ba'zi fanlar ona tilida o'rgatiladi, ayrimlari yangi tilda.

3. Ikki tilli immersion (dual-language immersion) – ikkala til ham muvozanatda qo'llaniladi. O'quvchilar ikki tilda ham ta'lim oladi.

Afzalliklari:

- Tilni tabiiy o'rganishga yordam beradi.
- Gapirish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Madaniy kompetensiyani shakllantiradi.

Kamchiliklari:

- Muhit resurslari ko'p talab etiladi.
- Dastlabki bosqichda tushunish qiyin bo'lishi mumkin.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ikkitilli ta'lim orqali intellektual rivoj, madaniy boyish, kognitiv hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish kabi natijalarga erishish mumkin. Masalan:

- Kognitiv foydalari – xotira, e'tiborni yaxshilash va diqqatni jamlash. Til almashinuvi miya faoliyatini faollashtiradi, xotira va diqqat funksiyasini yaxshilaydi. Aksariyat ikkitilli bolalarda ish xotirasi ko'p va katta ma'lumotlarni eslab qolish oson.
- Ko'p vazifalarni rivojlantirish – ikkita tilni bilish ko'p vazifalarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ikkitilli bolalar moslashuvchanlikda, muammolarni hal qilishda va bir vaqtning o'zida bir nechta harakatni talab qiladigan ishlarda yuqori natija ko'rsatishadi.
- Analitik foydalari – ikkitillilik tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatni rivojlantiradi, chunki bolalar turli nuqtayi nazardan yondosha boshlaydi.
 - Mehnat bozorida raqobatbardosh ustunlik.
 - Mantiqiy va tanqidiy fikrlash.
 - Madaniy tushuncha va bag'rikenglik.

Xulosa qilib aytganda, ikkitilli ta'lim o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga, lingvistik kompetensiyasini kengaytirish va globallashtirish davrida integratsiyalashuvga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida ona tili va chet tilidan birgalikda foydalanish o'quvchining kommunikativ salohiyatini oshiradi, tafakkurini faollashtiradi. Shu boisdan, ta'lim muassasalarida ikkitilli yondashuvga bosqichma-bosqich o'tish, metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va o'qituvchilarni maxsus tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. Bristol: Multilingual Matters.
2. Cummins, J. (2008). Bilingual Education and the Principles of Linguistic Interdependence. Toronto: OISE Press/
3. Garcia, O. (2009). Bilingual Education in the 21st Century: A Global Perspective. Malden, MA: Wiley- Blackwell.
4. Karimova, N. (2021). Ikkitilli ta'lim tizimini joriy etishning metodik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Wright, Wayne E. The handbook of bilingual and multilingual education (en). Wiley, 9 April 2015 – 56-bet. ISBN 978-1-119-00549-0.